

# O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy holati (2025-yil yanvar-oktabr oyi)

## 1. Sanoat mahsuloti

2025-yilning yanvar-oktabr oylarida respublika korxonalari tomonidan **865 792,4** mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi va sanoat ishlab chiqarishi fizik hajm indeksi o'tgan yilning shu davriga nisbatan **106,7** % ni tashkil etdi.

Shu bilan birga, sanoat ishlab chiqarishining umumiy hajmida ishlab chiqaradigan sanoatning ulushi 85,6 % ni, tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoati 7,3 % ni, elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash 6,5 % ni, suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish 0,6 % ni tashkil etdi.

Sanoat ishlab chiqarish o'sishining asosiy omili bo'lib ishlab chiqaradigan sanoat korxonalarida ishlab chiqarish o'tgan yilning shu davriga nisbatan 7,4 % ga, tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoati 3,7 % ga, suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish sanoatida 9,4 % ga oshganligi elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sanoatida 3,8 % ga oshgan.

Shuningdek, o'tgan yilning shu davriga nisbatan asosiy farmatsevtika mahsulotlari va preparatlari ishlab chiqarish (2024-yilning yanvar-oktabr oylariga nisbatan 23,7 % ga oshgan), kiyim maxsulotlari ishlab chiqarish (20,5 % ga), boshqa metall bo'lmagan mineral mahsulotlar ishlab chiqarish (21,9 % ga), rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish (18,7 % ga) hajmi oshdi.

O'tgan yilning shu davriga nisbatan mashina va uskunalarni ta'mirlash va o'rnatish (2024-yilning yanvar-oktabr oylariga nisbatan 82,7 %), kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish (2024-yilning yanvar-oktabr oylariga nisbatan 91,6 %) hajmi pasayishi kuzatildi.

## 2. Inflyatsiya darajasi

Respublikada 2025-yilning yanvar-oktabr oylari uchun iste'mol sektoridagi inflyatsiya darajasi **5,7** % ni tashkil etdi.

Ushbu davr mobaynida oziq-ovqat mahsulotlari o'rtacha 3,0 % ga qimmatlashdi, bu esa inflyatsiya darajasini 1,37 foiz bandga (f.b.) oshirdi. Nooziq-ovqat mahsulotlari o'rtacha 4,4 % ga qimmatlashib, umumiy ko'rsatkichni 1,39 f.b. oshirdi, xizmatlar esa o'rtacha 12,7 % ga qimmatlashib, umumiy ko'rsatkichni 2,90 f.b. oshirdi.

O'zbekiston Respublikasi MIIT-2018 bo'limlari kesimida 2024-yil dekabrga nisbatan INI ning yuqori chegarasi 116,1 % ga ("Turar joy xizmatlari, suv, elektr, gaz va boshqa yonilg'i turlari"), quyi chegarasi – 99,4 % ga ("Sug'urtalash va moliyaviy xizmatlar") yetdi. 2025-yil yanvar-oktabr oylarida narxlar o'sishi o'tgan yilning tegishli ko'rsatkichlari bilan solishtirganda, "Turar joy xizmatlari, suv, elektr, gaz va boshqa yonilg'i turlari" (mos ravishda 116,1 % va 137,0 %), "Sog'liqni saqlash" (mos ravishda

105,1 % va 118,9 %), “Ta’lim sohasidagi xizmatlar” (mos ravishda 104,8 % va 113,3 %) bo’limlarida o’sish sur’atida sezilarli sekinlashish qayd etildi.

2025-yilning yanvar-oktabr oylari uchun INI o’sishiga eng katta hissa qo’shgan bo’limlar “Turar joy xizmatlari, suv, elektr, gaz va boshqa yonilg’i turlari”, “Oziq-ovqat mahsulotlari va spirtsiz ichimliklar”, “Transport”, “Maishiy tovarlar va xizmatlar, turli tovarlar va xizmatlar” hamda “Sog’liqni saqlash” bo’limlari bo’ldi (ularning umumiy hissasi +4,8 f.b. yoki umumiy o’sishning 84,8 % ini tashkil etdi).

Boshqa bo’limlarning ta’siri kamroq ahamiyatga ega bo’ldi.

### **3. Qurilish ishlari**

2025-yilning yanvar-oktabr oyida **247 334,4** mlrd. so’mlik qurilish ishlari bajarilib, o’sish sur’ati **114,7** % ni tashkil etdi. Qurilish ishlarining umumiy hajmining 61 648,1 mlrd. so’mi yoki 24,9 % yirik korxona va tashkilotlar, 123 972,1 mlrd. so’mi yoki 50,1 % kichik korxonalar va mikrofirmalar, 61 714,2 mlrd. so’mi yoki 25,0 % norasmiy sektor sub’ektlari tomonidan bajarildi.

### **4. Chakana savdo tovar aylanmasi**

2025-yilning yanvar-oktabr oyida chakana savdo tovar aylanmasi **356 606,0** mlrd. so’mni tashkil etib, o’tgan yilning mos davriga nisbatan **10,3** % ga o’sdi.

Yirik korxonalarning tovar aylanmasi hajmi 2024-yilning yanvar-oktabr oyiga nisbatan 16,8 % ga o’sdi, bu esa umumiy savdo hajmining 17,9 % ulushiga to’g’ri keladi. Kichik biznes sub’ektlarining chakana tovar aylanmasi 2024-yilning yanvar-oktabr oyiga nisbatan 9,0 % ga o’sgan. Respublika miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 72,3 % ni, shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi 9,8 % ulush bilan 34 924,4 mlrd. so’mni tashkil etdi.

### **5. Tashqi savdo aylanmasi**

2025-yilning yanvar-oktabr oyi yakuni bilan respublikaning tashqi savdo aylanmasi **66 539,3** mln. AQSh dollarini tashkil etib, 2024-yilning mos davriga nisbatan **11 752,3** mln. AQSh dollariga yoki **21,5** % ga ko’paydi. Eksport hajmi 29 005,9 mln. AQSh dollariga yetdi, o’tgan yilning shu davriga nisbatan 27,8 % ga ko’paydi. Import 37 533,4 mln. AQSh dollariga yetdi va o’tgan yilning shu davriga nisbatan 16,9 % ga o’sdi.

Eksport tarkibida quyidagi guruhlarda o’sish kuzatildi, jumladan: oziq-ovqat va tirik hayvonlar 40,0 % ga (683,4 mln. AQSh doll.), har xil tayyor mahsulotlar 53,5 % ga (494,7 mln. AQSh doll.), kimyoviy moddalar va shunga o’xshash mahsulotlar 21,2 % ga (304,2 mln. AQSh doll.) mineral yoqilg’i, moylash materiallari va shunga o’xshash materiallar 10,2 % ga (114,6 mln. AQSh doll.) o’sdi.

Import tarkibida quyidagi guruhlarda ham o'sish kuzatildi, jumladan: mashina va transport uskunalari 13,2 % ga (1 486,4 mln. AQSh doll.), sanoat mahsulotlari 19,5 % ga (969,0 mln. AQSh doll.), kimyoviy moddalar va shunga o'xshash mahsulotlar 19,0 % ga (739,4 mln. AQSh doll.), oziq-ovqat va tirik hayvonlar 18,0 % ga (540,1 mln. AQSh doll.) o'sdi.

## **6. Ko'rsatilgan bozor xizmatlari**

2025-yilning yanvar-oktabr oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **818 485,0** mlrd. so'mni tashkil etdi va o'tgan yilning mos davriga nisbatan **14,4** % ga o'sdi.

Ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmining o'sishiga moliyaviy xizmatlarning 24,5 % ga (ko'rsatilgan umumiy bozor xizmatlari hajmining o'sishidagi ta'siri 4,1 punkt), transport xizmatlari 13,4 % ga (o'sishdagi ta'siri 2,5 punkt), savdo xizmatlari 13,0 % ga (o'sishdagi ta'siri 2,4 punkt), yashash va ovqatlanish xizmatlari 8,8 % ga (o'sishdagi ta'siri 1,8 punkt) aloqa va axborotlashtirish xizmatlari 19,6 % ga (o'sishdagi ta'siri 1,3 punkt) o'sishi ijobiy ta'sir ko'rsatdi.

Norasmiy va yashirin iqtisodiyotni statistik baholash bo'yicha o'tkazilgan kuzatuvlar natijalarini qo'shgan holda ko'rsatilgan bozor xizmatlarining eng katta hajmi yashash va ovqatlanish (167 261,5 mlrd. so'mni tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 108,8 % ga yetdi), transport xizmatlari (150 810,8 mlrd. so'm, 113,4 %), savdo xizmatlari (141 205,5 mlrd. so'm, 113,0 %) va moliyaviy xizmatlarga (138 972,8 mlrd. so'm, 124,5 %) to'g'ri keladi.

## **7. Korxona va tashkilotlar soni**

2025-yil 1-noyabr holatiga respublikada faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning soni **465,9** mingtani (*fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari*) tashkil etdi, ulardan kichik korxona va mikrofirmalar 395,8 mingta. Hududlar bo'yicha eng ko'p korxonalar soni Toshkent shahri (106 944 ta), Toshkent (45 197 ta), Samarqand (40 147 ta), Farg'ona (37 466 ta), Qashqadaryo (29 835 ta), Buxoro (28 456 ta) va Xorazm (26 801 ta) viloyatlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning eng ko'p soni savdo sohasida – 151 443 ta, sanoat sohasida – 58 558 ta, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi sohasida – 33 819 ta, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida – 29 717 ta hamda qurilish sohasida – 29 615 tani tashkil etadi.

2025-yil yanvar-oktabr oylarida respublikada 73,4 mingta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etildi, shundan kichik korxona va mikrofirmalar soni 69,2 mingtani tashkil etdi.

2025-yil 1-noyabr holatiga ko'ra respublikada xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni 17 595 tani tashkil etdi. Ulardan 4 204 tasi qo'shma korxonalarni va 13 391 tasi xorijiy korxonalarni tashkil etgan.